



## MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISH

Ismoilova Sarvinoz

Namangan davlat universiteti

iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich magistranti

noz98.98@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7785030>

## ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> March 2023Accepted: 29<sup>th</sup> March 2023Online: 30<sup>th</sup> March 2023

## KEY WORDS

## ABSTRACT

Mamlakatimiz moliya-budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududlardagi moliyaviy muammolarining keskinlashuvi sharoitida hamda bugungi kundagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mahalliy budgetlar imkoniyatlarini yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Mahalliy budgetlar - davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi. Mahalliy budgetlarda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqsori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy budgetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig'imlar hamda to'lovlardan tashkil topadi. Mahalliy budgetlarning mablag'lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budgetlar har bir mamlakat davlat budgetining ajralmas qismidir.

Vazirlar Mahkamasining e'lon qilingan 29.06.2017 yildagi 445-son qarorida mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish rezervlarini aniqlashning bat afsil mexanizmlari mustahkamlangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston» gazetasiga bergan intervusida ko'plab insonlarning bandligi va daromadi masalasi bevosita tadbirkorlik tuzilmalari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tdi. «Agar biz tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlamasak, ularga sharoit yaratib bermasak, shahar va tumanlarning mahalliy budgeti nochor ahvolda qolaveradi», — dedi u. Davlat rahbarining qayd etishicha, so'nggi yillarda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ikki barobar ortgan. Sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarning 50 foizdan ortig'i so'nggi uch yillikda tashkil etilgan. Sohada amalga oshirilgan bu kabi ishlar jamiyatda o'rta sinfning kuchayishi uchun zamin yaratadi. «Tadbirkorlar ularni qo'llab-quvvatlash haqidagi chiroylar so'zlarni ko'p eshitgan, endi bu gaplarning amaliy ta'siri va natijasini o'z kundalik faoliyatida his etishi kerak», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida xukumat tomonidan o'rta va uzoq kelajakka mo'ljallangan davlat dasturini amalga oshirishda, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va bozor munosabatlarining yanada rivojlanish sharoitida mahalliy budget daromadlari alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrlar yuzasidan Ozbekiston



Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlaydi: "...Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2010 yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizgacha, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 7 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir. Shu borada o'tgan yili Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganini ta'kidlash zarur."

Yuqoridagi mazkur holatlар mahalliy budgetlarni daromadlari istiqbolini rejalashtirishni taqoza etadi, bu tanlangan magistirlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son va "Mahalliy budgetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son farmonlarini ijro etish yuzasidan, shuningdek mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-son "Mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari togrisida"gi Qarori va mavzuga oid boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

### References:

1. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda// <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>
2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi. - Toshkent, 2011. 22-yanvar. № 16 (5183)